

TEMURIYLARNING YEVROPA MAMLAKATLARI BILAN ALOQALARI

Amandavlatov Adham Absamat o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning qonunchiligi, tashqi siyosati va diplomatiyasi, davlat va harbiy boshqaruvda tutgan siyosati hamda strategiyasi doirasidagi ayrim masalalar tahlil etilgan. Maqola fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimizda buyuk bobokalonimizning deyarli butun Osiyo mintaqasida olib borgan siyosati, uning davlatni adolatli idora etish borasidagi mahoratidan o'rnak olgan holda, buyuk ajdodimiz shon-shuhratini ko'z o'ngimizda yana bir qadar yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Temur tuzuklari, Movarounnahr, harbiy faoliyat, davlat, boshqaruv, iqtisod, adolat, diplomatiya, siyosat, Usmonli turklar, Halab, Damashq, Kambalu, Iogan Shiltberger.

Xalqaro munosabatlarda Amir Temur davlatining rolini ko'rib chiqar ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq boshiga bir marta bitilgan bo'ladi". Shu ma'noda o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidan o'z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga qadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgandi. Bu ulkan davr ichida davlatimiz boshqaruviga turli sulolalar kelib ketdi. Ularning faoliyati turli zamonlarda, turli ob'ektiv-sub'ektiv shart-sharoitlarda turlicha kechdi.

Temuriylarning Yevropa bilan aloqalari: XV asr boshlarida Amir Temur va Yevropa monarxlari tashqi xavf bo'lmish Usmonli imperiyasiga qarshi yaqinlashishga harakat qilganlari tufayli rivojlangan. Temuriylar musulmon bo'lsalar-da, Usmonli turklari va Misr mamluklari bilan kuchli dushmanlik munosabatlari saqlanib qolayotgan edi.

Garchi Temuriylar o'zini g'oziy deb e'lon qilgan bo'lsalar-da, Amir Temur Yevropa bilan nisbatan do'stona munosabatlarni davom ettirgan. Yevropa o'sha paytda Usmonli turklarning bosqinchi qo'shinlari tahdidi ostiga qolgan va Yevropa hukmdorlari kuchli ittifoqchilardan umidvor bo'layotgan edi. Amir Temur ham xuddi shu tarzda Yevropa davlatlarini Usmonli dushmanlarini yo'q qilishda yordam beradigan ittifoqchilar deb bilgan. 1399-yilda Hindiston yurishlaridan so'ng Amir Temur 1400-yilda Halab va Damashqni egallagan. 1402-yil iyuldagi Anqara jangida Usmonli hukmdori Boyazid I bilan jang qilib, mag'lubiyatga uchratgan.

Ispaniya va Fransiya qirollari bilan aloqalar:

Anqara jangidan oldin, Yuz yillik urushning tinch bosqichlari vaqtida chet elda baxtlarini izlagan ko'plab Yevropa ritsarlari va qurolsozlaridan ba'zilar Amir Temur armiyasida xizmat qilishgan. Jak du Fey ismli fransuz zamindorining Amir Temur qo'l ostida xizmat qilgani haqida ma'lumotlar mavjud, ammo uning xizmati nimadan iborat bo'lgani noma'lum. Shunisi ma'lumki, Amir Temur Nikopol jangida dahshatli muvaffaqiyatsizlikka uchragan salib yurishidan so'ng, o'z vatandoshlariga qo'shib olishi uchun uni ozod qilgan. Jangdan so'ng Usmonli sultoni ko'plab mahbuslarni qatl etishni buyurgan, ammo Amir Temur Usmoniylarning jihod chaqirig'iga javob berish uchun yuborgan tatar jangchilari Jak du Feyni tanib, uni qatl etilishdan qutqarib qolishgan.

Anqara jangi paytida Ispaniyaning ikki elchisi Amir Temur yonida bo'lgan. Ular Pelayo de Sotomayor va Fernando de Palazuelos. Usmonli turklarning Yevropaga hujum qilishiga qarshi Amir Temur va Yevropa davlatlari o'rtasida ittifoq tuzish imkoniyati mavjud edi. Usmonli va mamluk dushmanlarni tajovuzkor ittifoqlar yordamida o'rab olishni istagan Amir Temur uchun aniq sabab bor edi.

Bu ittifoq o'zida bir asr oldingi fransuz-mo'g'ul ittifoqiga urinishlarni aks ettirgan.

Temur Karl VI saroyiga Sultoniya arxiyepiskopining Dominikan ruhoniysi Jeanni elchi qilib yuborgan. Jean 1403-yil 15-iyunda Parijga yetib kelib^[5], Temurning maktubini Karl VI ga yetkazgan. Unda quyidagilar yozilgan:

Eng osoyishta, eng muzaffar Qirol va Sulton, Fransiya va boshqa ko'plab millatlar qiroli, eng qadrlil do'stim, dunyoning eng marhamatli monarxi, ko'plab buyuk urushlar g'olibi.

— Amir Temurdan Karl VI ga maktub

Temur Karl VIga harbiy ittifoq hamda tijoriy aloqalarni yanada rivojlantirishni taklif qilgan. Karl VI faqatgina Temur o'limidan sal oldin (1405) javob elchiligini yubora olgan edi.

Ispaniya bilan aloqalar ham rivojlangan. Ispaniyalik tarixchi Miguel Angel Ochoa Brunning fikriga ko'ra, Kastiliya qiroli Henry III va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar o'rta asr Kastiliya diplomatiyasining eng muhim sahnalari bo'lgan^[8]. Amir Temur Kastiliya saroyiga Xoji Muhammad al-Qozi ismli Chig'atoy elchisini xat va sovg'a-salomlar bilan yuborgan.

1402-yil dekabrda Amir Temur Anadolu sohilidagi kichik Yevropa avanposti bilan to'g'ridan-to'g'ri ziddiyatga kirishgan. Izmir shahri qal'asi va portini Gospitalyer ordeni egallab olgan. Amir Temur Izmirni ikki hafta davomida qamal qilib, egallagan. Ushbu harakat Aragon va Kastiliyani vahimada qoldirgan.

Natijada Kastiliya qiroli Genrix III 1403-yil 21-mayda Rui Gonzales de Klavixo boshchiligidagi elchilarni yana ikki elchi — Alfonso Paez va Gomes de Salazar bilan birgalikda Amir Temurning Samarqanddagi saroyiga yuborgan^{[1][4][5]}. Elchi

Klavixo 1406-yil Ispaniyaga qaytib kelgach, Amir Temur Ispaniya qirolini „o‘zining o‘g‘li deb bilishini“ aytgan.

Klavixoning so‘zlariga ko‘ra, Temurning Ispaniya delegatsiyasiga nisbatan yaxshi munosabati uning asosiy mezbani „Xitoy hukmdori“ (ya’ni Min sulolasi imperatori Yongle)ning elchilariga bo‘lgan munosabatiga zid bo‘lgan. „Yer yuzi sohibi“ unvoniga ega bo‘lgan Xitoy hukmdori elchilarini Temur „o‘g‘ri va yomon odam“ deb atagan hamda uning elchilarini ispan elchilaridan orqaga joylashtirgan.

Klavixoning Samarqandga tashrifi Yevropa jamoatchiligiga Xitoy haqida ma’lumotlar yetkazish imkonini bergan. Natijada yevropaliklar Marko Polo sayohatlaridan keyin o‘tgan asrlarda ushbu mamlakat haqida bevosita tasavvur uyg‘otishga muvaffaq bo‘lishgan. Klavixo axborotida, garchi to‘liq bo‘lmasa ham, imperator Chju Yuanchjan avlodlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan fuqarolar urushi haqida ma’lumotlar berilgan. Ispaniyaliklar ba’zi xitoylik mehmonlar bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega bo‘lib, Samarqand va Kambalu o‘rtasidagi karvon yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlar olishgan. Yevropa jamoatchiligiga Xitoy poytaxti Kambalu „dunyodagi eng katta shahar“ ekanligi va bu mamlakatning qudratli qo‘shinlari haqida gapirishdan tashqari, Klavixo yanglishib, Xitoyning yangi imperatori katoliklikni qabul qilgani haqida xabar bergan^[11]. Shunday qilib, uning ma’lumotlari Xitoyda xristianlikning keng tarqalgani haqidagi Yevropa dunyoqarashini qo‘llab-quvvatlovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Bu tasavvur XVII asr boshlariga qadar saqlanib, 1603-yilda taniqli Bento de Góis ekspeditsiyasi yuborilishining sabablaridan biri bo‘lgan.

Amir Temurdan keyingi munosabatlar:

Temur 1405-yilda vafot etgach, uning o‘g‘li Shohrux Mirzo Usmonlilarga qarshi kurashni davom ettirgan hamda xristian G‘arbida bosqinchi Usmonlilar imperiyasi Yevropadan uzoqlashtirilishi mumkinligiga umid yaratgan.

Bavariyalik sayyoh Iogann Shiltberger 1402-yildan 1405-yilgacha Amir Temur xizmatida qolgani ma’lum. Shuningdek, ko‘plab venetsiyalik va Genuyalik savdogarlar ham o‘sha davr tashqi aloqalarida faol bo‘lishgan.

Yevropa va Temuriylar o‘rtasidagi keyingi aloqalar venetsiyalik sayyoh Niccolò de’ Contining 1420—1425-yillar oralig‘idagi aloqalari bo‘lgan. Ispaniyaning sharq bilan yaqinlashishga bo‘lgan istagi 1492-yilda Xristofor Kolumb davriga qadar davom etgan bo‘lsa-da, aloqalar bundan keyin avvalgidek rivojlana olmagan. Yevropaliklarning maqsadi Xitoyning Buyuk Xoniga yetib borish bo‘lgan.

Amir Temur tarixi Yevropada sharqshunoslik bilan bog‘liq holda uzoq tarixga ega. Hatto 1590-yilda Kristofer Marlou Buyuk Temur asarini, 1724-yilda Hendel Temur operasini yaratgan.

ADABIYOTLAR:

1. 1 Atiya, Aziz Suryal (1938) [1938], The Crusade in the Later Middle Ages, Kraus, 256ff-bet, ISBN 9780527037000, 2016-05-13da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2022-05-21
2. ↑ [Jump up to:2,0 2,1 2,2](#) Wood, Frances. The Silk Road: Two Thousand Years in the Heart of Asia Frances Wood. University of California Press, 2002 — 136-bet. ISBN 9780520243408. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
3. ↑ [Jump up to:3,0 3,1 3,2 3,3](#) Fisher, W. William Bayne; Jackson, Peter; Lockhart, Lawrence. The Cambridge History of Iran. Cambridge University Press, 1986-02-06 — 375—bet. ISBN 978-0-521-20094-3. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
4. ↑ [Jump up to:4,0 4,1](#) Sinor, Denis. Inner Asia by Denis Sinor. Psychology Press, 29 July 1997 — 190-bet. ISBN 9780700708963. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
5. ↑ [Jump up to:5,0 5,1 5,2 5,3 5,4](#) Fischel, Walter Joseph. Ibn Khaldun in Egypt Walter F. Fischel, 1967 — 106-bet. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
6. ↑ Daniel, Elton L.; Mahdī, ‘alī Akbar. Culture and customs of Iran by Elton L. Daniel. Bloomsbury, 2006 — 25-bet. ISBN 9780313320538. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
7. ↑ Gifford, John. The history of France, from the earliest times, to the present important era, 1792 — 355-bet. Qaraldi: 2013-yil 21-may.
8. ↑ González de Clavijo, Ruy; Estrada, Francisco López (1999), Embajada a Tamorlán, Volume 242 of Clásicos Castalia Series (ispancha), Editorial Castalia, 19-bet, ISBN 84-7039-831-8, 2020-08-11da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2022-05-21
9. ↑ Levathes, Louise (1994), When China Ruled the Seas: The Treasure Fleet of the Dragon Throne, 1405–1433, Oxford University Press, 125–126, 220n-bet, ISBN 0-19-511207-5. Her source is Fletcher, Joseph F. (1968), „China and Central Asia, 1368–1884“, in Fairbank, John King (muh.), The Chinese world order: traditional China's foreign relations, Volume 32 of Harvard East Asian series, Harvard University Press, 211-bet, who in his turn cites a translation of the Persian text of Yongle's letter from a Samarkand ca. 1475 source
10. ↑ Levathes 1994, ss. 125–126, 220n. Her source is González de Clavijo, Ruy; Markham, Clements R. (translation and comments) (1859), Narrative of the embassy of Ruy Gonzalez de Clavijo to the court of Timour at Samarcand, A.D. 1403-6 (1859), 133–134-bet. (Levathes quotes a 1970 reprint, with the same pagination).
11. ↑ [Jump up to:11,0 11,1](#) González de Clavijo & Markham 1859, ss. 172–174. During Clavijo's visit the capital of the Ming Empire was actually Nanjing, rather than Beijing (Cambalu).
12. ↑ Setton, Kenneth Meyer. A History of the Crusades, Volume VI: The Impact of the Crusades on Europe Kenneth M. Setton. Univ of Wisconsin Press, 1990-06-15 — 262-bet. ISBN 9780299107444. Qaraldi: 2013-yil 21-may.